



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



“O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”

Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
eldorbekovg22@gmail.com, tel: 93-557-38-09

Annotatsiya: Oxirgi yillarda Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanib kelmoqda. Boshqa rivojlanayotgan davlatlar singari ushbu o'sish resurslardan intensiv foydalanish va sanoat birinchi planga chiqishi tufayli amalga oshirilmoqda. Lekin, bunday intensiv ishlab chiqarish darajasi o'z navbatida atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Zero, ekologiya yuqori ifloslanish darajasi iqtisodiyotga katta zarar keltiradi: sog'liqni saqlash xarajatlari ortadi, ish samaradorligi pasayadi va erta o'lim holatlari ko'payadi. Shu sababli, ekologiyaga bo'lgan salbiy ta'sirni minimallashtirish, bor resurslardan samarali foydalanish va shu bilan birga real iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishi kerak hisoblanadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyotida kapital hamda ishchi kuchining salmog'ini aniqlash, ishchi kuchi samaradorligiga ekologik holatning ta'sirini aniqlash va ushbu ko'rsatkichlarni prognozlay bilish mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun asos hisoblanadi. Ushbu maqolada barqaror rivojlanishning nazariy asoslari, xorij tajribasi, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi to'siq va imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada shuningdek makroiqtisodiy darajada joriy va mikroiktisodiy darajada kelajakdagi tahlillar olib borilgan, shu asosida ekonometrik modellar tuzilgan va ularning parametrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologiya, barqaror rivojlanish, O'zbekiston, jamiyat farovonligi, Kuznets egri chizig'i, samaradorlik, tabiiy resurslar, qayta tiklanuvchi energiya, energetik islohot, Kobb-Duglas funksiyasi.

Abstract: In recent years, the economy of New Uzbekistan has been steadily developing. Like in other developing countries, this growth is driven by the active use of resources and the prioritization of industry. However, such an intense level of production negatively impacts the environment. A high level of pollution inflicts significant damage on the economy: healthcare costs rise, labor productivity decreases, and the number of premature deaths increases. Therefore, to minimize the negative impact on ecology, to effectively utilize available resources, and to ensure real economic growth, Uzbekistan needs to transition to a green economy. Additionally, determining the share of capital and labor in our country's economy, identifying the influence of the ecological situation on labor efficiency, and the ability to forecast these indicators are foundational for the country's transition to a green economy. This article discusses the theoretical foundations of sustainable development, international experience, and the obstacles and opportunities Uzbekistan faces on its path to a green economy. The article also conducts a current analysis at the macroeconomic level and a future analysis at the microeconomic level, based on which econometric models are developed and their parameters provided.

Key words: Green economy, ecology, sustainable development, Uzbekistan, societal well-being, Kuznets curve, efficiency, natural resources, renewable energy, energy reform, Cobb-Douglas function.



Аннотация: В последние годы экономика Нового Узбекистана стабильно развивается. Как и в других развивающихся странах, этот рост обусловлен активным использованием ресурсов и выдвижением промышленности на первый план. Однако такой интенсивный уровень производства, в свою очередь, оказывает негативное влияние на окружающую среду. Ведь высокий уровень загрязнения окружающей среды наносит большой ущерб экономике: растут расходы на здравоохранение, снижается производительность труда и увеличивается количество случаев преждевременной смерти. Поэтому для минимизации негативного воздействия на экологию, эффективного использования имеющихся ресурсов и одновременного обеспечения реального экономического роста Узбекистану необходимо перейти к зеленой экономике. Кроме того, определение доли капитала и рабочей силы в экономике нашей страны, выявление влияния экологической ситуации на эффективность рабочей силы и умение прогнозировать эти показатели являются основой для перехода страны к зеленой экономике. В данной статье освещены теоретические основы устойчивого развития, зарубежный опыт, препятствия и возможности Узбекистана на пути перехода к зеленой экономике. В статье также проведен текущий анализ на макроэкономическом уровне и будущий анализ на микроэкономическом уровне, на основе которых составлены эконометрические модели и приведены их параметры.

Ключевые слова: Зеленая экономика, экология, устойчивое развитие, Узбекистан, благосостояние общества, кривая Кузнеця, эффективность, природные ресурсы, возобновляемая энергия, энергетическая реформа, функция Кобба-Дугласа.

KIRISH

Barqaror ekologik muhit – har bir davlat uchun iqtisodiy yutuqlar olib keluvchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, havoning tozalik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda aholining ish samaradorligi 60 foizgacha oshadi [5]. Lekin, hozirgi vaqtdagi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining ko'payishi va iqtisodiy o'sishning muntazam ravishda atrof-muhitga bo'lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So'nggi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000-yilda 1900-yilga nisbatan) oshdi, tropik o'rmonlarning yo'qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko'paydi. Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o'zgarishlari o'rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin [3].

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, asosan qishloq xo'jaligiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy yo'qotishlar 2030-yilga kelib YalMning 1 foizini tashkil qilishi baholangan. Iqtisodiy yo'qotishlarning qariyb yarmi suv va biologik xilma-xillikning qisqarishi natijasida yashash joylarining yo'qolishi bilan bog'liq bo'lib, bu birinchi navbatda qishloq xo'jaligiga ta'sir qiladi. Iqlim o'zgarishi mehnat unumdorligiga ham ta'sir qiladi va O'zbekistonda ishchi kuchi bo'yicha taklifning 2-5 foiz punktga qisqarishiga olib kelishi mumkin [14].

Shu sababli, 2022-yilning 2-dekabrida "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida quyidagi islohotlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan [19]:

tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishga yordam beruvchi o'zgarishlarni amalga oshirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarning tahlilida dastlab yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, unga erishish sabablari va tashqi samaralari o'rganib chiqildi. Bir guruh ingliz olimlarining fikricha, ijobiy tashqi samaralar yaratishda va jamiyat farovonligini maksimallashtirishda (ya'ni, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarning yutug'ini maksimallashtirishda) mavjud resurslar hajmini optimallashtirish, ularni qayta ishlash va ishlab chiqaruvchilar korxonalaridan chiquvchi zararli moddalarni cheklash muhim o'ringa ega. Ularning fikricha, iqtisodchilar barqarorlikni odatda doimiy yoki kamaymaydigan iste'mol (yoki foyda) sifatida talqin qiladilar. Ekologlar ko'proq e'tiborni inson farovonligidan ko'ra biosferaning barqarorlik kabi xususiyatlariga qaratishga moyildirlar. Shu sababli, iqtisodchi nuqtayi nazaridan ba'zi qarorlar Pareto-samaradorlikka olib kelganday ko'rinsa-da, ekologlar buni salbiy tashqi samara sifatida baholashlari mumkin [10].



O'zbekistonning hozirgi ekologik holatini aniqlash uchun O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi qolgan davlatlarning ekologik holati taqqoslab chiqildi. Havodagi **PM_{2.5}** darajasining yillardagi o'zgarish holatlari tahlil etildi [8]. Atrof-muhitni saqlash uchun sarflanuvchi xarajatlar va buning mehnat samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun rus iqtisodchi olimasi Васильева Анастасия Владимировна ning "Возможности оценки экологической эффективности труда в масштабах вида экономической деятельности" tahlil etildi. Olimaning fikriga ko'ra, ekologik mehnat samaradorligini ta'minlashda moliyaviy resurslar absolyut qiymatda doim asosiy omil hisoblansa-da, hududlar orasidagi ustunlikka aynan mehnat faoliyatini amalga oshirish muhitidagi axborot resurslariga sarflangan investitsiyalar ta'minlab beradi [20].

Iqtisodchi olim A. Vaxabov fikricha resurslar tanqisligi sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishga aynan yashillik va qayta tiklanuvchi energiya hisobiga erishish mumkin deb hisoblaydi. Olim fikricha, yashil iqtisodiyotga o'tishning 3 xil siyosiy dastaklari mavjuddir [13]:

Ma'muriy dastaklar. Korxonalarga atrof-muhitga zarar yetkazmaslik maqsadida nimalarga rioya etish zarurligi qayd etiladigan me'yoriy-huquqiy cheklovlar ma'muriy dastaklar hisoblanadi. Ushbu dastaklar ayrim shaxslar tomonidan qoidalarga zid xatti-harakatlar qilinganda qo'llaniladigan sanksiyalar sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, sanoat uchun muayyan zaharli moddalarni taqiqlash bunga misol bo'la oladi.

Iqtisodiy dastaklar. Ushbu dastaklar narx mexanizmi va iqtisodiy sharoitlar, ayrim guruh iqtisodiy subyektlar faoliyatini o'zgartirishga xizmat qiluvchi bozor munosabatlari orqali ishlaydi. Ular iste'molchilar va sanoat korxonalarini atrof-muhitga zarar keltiruvchi chiqindilarni chiqarish hajmini qisqartirishni iqtisodiy asoslash hamda atrof-muhit barqarorligini ta'minlovchi texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Axborot dastaklari. Axborot dastaklari iqtisodiy subyektlarni "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish bilan bog'liq axborotlar bilan ta'minlashning muqobil usullari to'g'risida xabardor qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jamoatchilikning suv va elektr energiyani tejashning muhimligi, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash to'g'risidagi treninglar, ta'lim xizmatlari va boshqa axborotlar bilan ta'minlash darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar shular jumlasidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholining ekologiya borasidagi qarorlari, ularga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash uchun analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Kobb-Douglas ishlab chiqarish funksiyasini tuzishda barcha omillar logarifmlab (ln) olingan. Makroiqtisodiy tahlilni amalga oshirishda Kuznets egri chizig'ini aks ettirish uchun statistik ma'lumotlar polinomial trend ko'rinishida ifodalandi. Statistik tahlillarda va ekonometrik modellashtirishda Excel dasturiy ta'minotidan foydalanildi. Ma'lumotlar illyustratsiyasida grafik va jadvallardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy nazariy tahlil

Yashil iqtisodiyotga o'tishning bir necha o'nlab sabablar mavjud bo'lsa ham, tahlil jarayonida aniq maqsadlarni belgilash uchun ularning ichidan asosiy 3 o'zgaruvchini tanlab olamiz. Yashil iqtisodiyotga o'tishning avvalo 3 xil sababi mavjud:

1. Ijtimoiy va ekologik. Jigarrang iqtisodiyotning flora va faunaga tuzatib bo'lmaz zarari, insonlar sog'lig'idagi to'satdan paydo bo'luvchi kasalliklar, umr davomiyligining pasayishi.

2. Iqtisodiy. Uzoq vaqt davomida zaharli havodan nafas oluvchi kishining ish samaradorligi pasayishga yuz tutadi. Oqibatda mehnat bozorida ish samaradorligi pasaygan, yaxshiroq mehnat sharoitlarini talab etuvchi ishchi kuchi paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida firmalarda 1 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun ko'proq kishi-soat talab etilishiga va tannarx yuqorilashuviga ta'sir o'tkazadi.

3. Resurslar zaxirasining kamayishi. Ma'lumki, energiya manbasi hisoblanuvchi neft, gaz va ko'mir kabi yoqilg'ilar bir kun kelib tugaydi. Avstraliyadagi Queensland universiteti olimlari fikricha, 2050-yilgacha gaz va neft zaxiralari keskin kamayishga yuz tutadi va ko'mir yagona yoqilg'i manbasiga aylanadi [12]. Bunday sharoitda alternativ "yashil" energiya manbasiga ega bo'lmagan iqtisodiy subyektlar tovar va xizmatlar ishlab chiqara olmaydi yoki kam sonli an'anaviy yoqilg'i manbalarini yuqori narxda sotib olishga majbur bo'ladi.

Yuqoridagilardan barchasi makroiqtisodiy darajada hal etilishi kerak bo'lgan muammolar bo'lsa-da, aynan ishchi kuchi iqtisodiy samaradorligining pasayishi ko'pgina iqtisodchilar nazaridan chetda qolmoqda. Bu holat ish beruvchi tomonidan "ishchining yetarli darajada bilimli va chaqqon emasligi" bilan izohlanishi esa mehnat bozorida potensial mehnat resurslarini kamaytirishi mumkin.



Mikroiqtisodiy tahlil

Bir guruh xitoylik olimlar fikricha, aynan quyosh panellari 2050-yilga borib dunyodagi eng yirik resurs beruvchi manbaga aylanadi va har yili 10 trillion kilovatt-soatdan ortiqroq elektr toki bilan ta'minlay oladi [2]. Boshqa turdagi energiya manbalarining kamayish tendensiyasi esa davom etaveradi. Demak, boshqa o'zgarmas sharoitlarda kompaniyalarda energiya resurslariga bog'liq o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar summasi ortib boradi. Qisqa muddatli oraliqda firma xarajatlari quyidagicha berilgan deb olaylik:

$$TC = \frac{Q^2}{2} + 5Q + 5000$$

Funksiyadan ko'rishimiz mumkinki, firmaning o'zgaruvchan xarajatlari

$$\frac{Q}{2} + 5$$

ga teng. Agar firma 1 oyda 100 tovar ishlab chiqarmoqchi bo'lsa, uning xarajati 55 shartli birlikni tashkil etadi. Endi resurslar tanqisligi sharoitidagi xarajatlar funksiyasini ko'rib chiqsak:

$$TC = Q^2 + 20Q + 5000$$

Endi firma avvalgi 100 ta tovarni ishlab chiqarish uchun 120 shartli pul birligini sarflaydi. Energiya resurslariga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchan xarajatlar vaqt o'tgani sayin ortaveradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish esa firmalarni ushbu muammodan qutqarishi mumkin. Chunki qisqa muddatli oraliqda resurslar tanqisligi sharoitida firma har bir qo'shimcha an'anaviy energiya manbasi uchun ko'proq xarajat qilishga majbur bo'lsa, "yashil energiya" manbasi orqali u o'zining o'zgaruvchan xarajatlarning katta qismini doimiy xarajatlarga o'zgartiradi. Hozirda 1-guruhga mansub elektr energiyasi iste'molchilari 1 kVt/soat uchun 1000 so'mdan to'laydi [17]. Aytaylik, korxona ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun o'z elektr energiya iste'molini ham oshirishi kerak va har kuni 1000 ta tovar ishlab chiqarish uchun 100 kVt elektr energiyasini sarflaydi. Demak, har bir tovarni ishlab chiqarish uchun u 100 so'mlik elektr energiyasini sarflaydi. Korxona bir yilda 300 kun ishlaydi deb olsak (dam olish kunlari va bayramlarni chiqarib tashlasak), u 1 yilda elektr energiyasi uchun 30 mln so'mlik xarajatlarni amalga oshiradi. Agar firma o'z ishlab chiqarish hajmini oshirmoqchi bo'lsa va iste'molni limitdan oshirsa, u qo'shimcha to'lov hamda omillar mahsuldorligining kamayish qonuni sababli 1 birlik tovar uchun ko'proq to'lashi kerak bo'ladi.

Quyosh panellariga o'tish orqali korxona esa firma 25-30 yillik energiya manbasiga ega bo'ladi. Masalan, narxi 28 ming AQSh dollari hisoblanuvchi 30 kVt/soatlik quyosh panelini o'rnatish orqali firma har kuni o'z iste'molidan tashqari qo'shimcha 100-125 foizgacha elektr energiyasiga ega bo'lishi mumkin [6]. Bunday holatda firmaning yillik doimiy amortizatsiya xarajatlari o'rtacha 13 mln so'mni (1000 dollar), 1 tovarni ishlab chiqarishga sarflanuvchi elektr energiyasi xarajatlari esa o'rtacha 70 so'mni tashkil etadi ($Q=180\,000$).

Makroiqtisodiy tahlil: mavjud muammolar

Mamlakatda ishlab chiqarish darajasini aniqlash, unda kapital va mehnatning o'rnini belgilash va ishlab chiqarish darajasini prognozlashda Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalaniladi. Ushbu tadqiqotda ekologik holatning ishlab chiqarish funksiyasiga ta'sirini o'rganish uchun aynan shu modeldan foydalanildi:

$$Y = AL^{\alpha}K^{\beta}$$

Bu yerda, Y – ishlab chiqarish hajmi, L – ishchi kuchi, K – kapital, A – texnologik progress, α – mehnat bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti, β – kapital bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti.

BMT hisobotiga ko'ra, ekologiyaga yetkaziluvchi zararining davom etishi va resurslar kamayishining davom etishi 2030-yilga kelib, dunyo YaIM hajmiga 2,7 trln. dollar zarar ko'rsatishi prognoz qilinmoqda [9]. Bundan tashqari, havoning ifloslanishi, unda zaharli moddalarning ko'payishi orqali inson sog'lig'iga zarar yetadi va uning ish samaradorligi pasayadi [4]. Aynan shu nazariyaning O'zbekistondagi holatini tekshirish uchun, 2010-2023-yillardagi statistik ma'lumotlar orqali ekonometrik model yaratildi:

$$Y = 0,00004 * K^{0,312} * L^{2,037}$$

Bu yerda, Y – real YaIM (bazis 2010-yilga asosan), K – asosiy kapitalga kiritilgan real investitsiyalar hajmi (bazis 2010-yilga asosan) [15], L – iqtisodiyotdagi rasmiy band aholiga to'langan real ish haqi hajmi (bazis 2017-yilga asosan), 0,00004 – texnologik progress, 0,312 – kapital bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti, 2,037 – mehnat bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti.

Modeldan ko'rish mumkinki, mehnat va kapital elastiklik koeffitsiyentlari yig'indisi 1 dan katta. Demak, O'zbekiston iqtisodiyotidagi masshtab samarasi musbat. Masalan, real ish haqi xarajatlari va asosiy kapitalga real investitsiyalar hajmining 2 foizga oshirilishi real YaIM hajmini 5,1 foizga oshiradi. Ushbu o'sishning deyarli 81 foizini ishchi kuchiga sarflangan xarajatlar tashkil etadi.



1-jadval. Ekonometriya modelining asosiy statistik ko'rsatkichlari (Ishchi kuchi va kapitalning ta'siri tahlili).

R ²	Omillarning p-qiyamati	F-qiyamat (Значимость F)	Standart xatolik
0,987	p<0,001 (Ishchi kuchi) p=0,12 (Kapital)	0,0002	0,058

Jadvaldan ko'rish mumkinki, kapital omilining p-qiyamati 0,12ga teng bo'lsa-da, modeldagi 2-omil ishchi kuchining p-qiyamati 0,005 dan kichik, F-qiyamat 0,0002 va R² 0,987 ni tashkil etadi. Demakki, kapital omilining statistik ahamiyatliligi 0,05 dan yuqori bo'lsada, natijamizning tasodifan chiqish ehtimoli juda kichik. Kapitalning p-qiyamati 0,05dan past chiqishiga 2 sabab mavjud: birinchidan, kuzatilayotgan yillar soni kam (Statistika agentligining rasmiy o'rtacha ish haqini faqatgina 2017-yildan e'lon qila boshlaganligi sababli) va ushbu muddatdagi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar deflyatori ba'zi yillarda YalM deflyatoridan keskin yuqori bo'lganligidir (1-jadval).

Yuqoridagi model O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy holati bo'yicha ma'lumot bera olsa-da, kuzatiluvchi yillar kamligi sababli, biz YalMda mehnat va kapital ulushidagi o'zgarishlarni optimal tahlil eta olmaymiz. Shu sababli, Kobb-Duglas modeli imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun L ko'effitsiyentini real ish haqi hajmi bilan emas, balki iqtisodiyotda band aholi soni bilan ifodalaymiz [16]. Endi mehnat bo'yicha elastiklik ko'effitsiyenti va kapital bo'yicha elastiklik ko'effitsiyenti o'zgarish tendensiyasini ko'rish uchun oxirgi 5 yillik statistik ma'lumotlar ko'rib chiqildi.


2-jadval. 2010–2023-yillar kesimida kapital, mehnat va texnologik progress bo'yicha elastiklik ko'effitsiyentlari dinamikasi.

Yillar	Kapital bo'yicha elastiklik ko'effitsiyenti	Mehnat bo'yicha elastiklik ko'effitsiyenti	Texnologik progress
2010–2019	1,0388	5,6081	0,0000357
2010–2020	1,1937	4,8850	0,0000475
2010–2021	1,2673	4,7001	0,0000364
2010–2022	1,3250	4,7371	0,0000185
2010–2023	1,3253	4,7373	0,0000186

Ushbu modellashtirishimizda, kuzatuvlar sonining 2 barobar ko'proq bo'lganligi sababli, kutilganidek barcha yillardagi omillarning p-qiyamati 0,05 dan kichik va R²>0,97 ni tashkil etgan. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, YalMda kapital ulushining o'sishi yillar davomida barqaror yuz bergan bo'lsa-da, 2019-yildan so'ng YalMda band aholi hissasi keskin kamaygan. Bu albatta, ishlab chiqarishda kapital o'rningining ortishi va sanoatlashuv bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki, 2010–2019-yillarda ishlab chiqarishdagi masshtab samarasining 15,6 foizigina kapital bilan ifodalangan bo'lsa, 2010–2023-yillarda bu ko'rsatkich 21,8 foizga yetgan. Ammo, texnologik progress ko'rsatkichi ushbu yillar davomida 92 foizga pasaygani sababli, kapitaldan foydalanishdagi absolyut samaradorlik 50 foizga kamaygan. Ishsizlik ko'rsatkichi oxirgi yillarda kamayganini ham inobatga olsak, muammo ishchilar samaradorligida degan xulosaga kelish mumkin. Chunki, real investitsiya va ishchi kuchi absolyut hajmining ortishi oqibatida texnologik progressning kamayishi mehnat unumdorligi pasayganidan dalolat berishi mumkin. L va A omillarning 2019-yildan keyin keskin pasayganligi esa pandemiya va ekologik muvozanat buzilishi tufayli yuzaga kelganligi ehtimolligi yuqoriroq (2-jadval).

Makroiqtisodiy tahlil: imkoniyatlar

Kuznets ekologik egri chizig'i - atrof-muhit holatining yomonlashuvi ko'rsatkichlari bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad o'rtasidagi taxminiy bog'liqlikdir. Iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ifloslantiruvchi moddalar chiqindilari ortadi va atrof-muhitning ekologik holati yomonlashadi [7]. Biroq, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning muayyan darajasiga yetgach (bu daraja turli ko'rsatkichlar uchun farq qiladi), yo'nalish o'zgaradi [11]. Natijada, yuqori daromad sharoitida iqtisodiy o'sish atrof-muhit holatining yaxshilanishiga olib keladi. Ba'zi OAV keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Toshkentda ekologik ahvol qoniqarli bo'lmasa-da, boshqa hududlardagi ahvol yildan-yilga barqarorlashmoqda [18]. Shu sababli, O'zbekistondagi ijobiy tendensiyalarni aniqlash uchun 2017-2023-yillardagi statistik ko'rsatkichlar tahlil etilib, polinomial ekonometrik model tuzildi.



1-diagramma. 2017–2023-yillarda O'zbekiston hududidagi Kuznets egri chizig'i grafigi.

Ekonometrik model koeffitsiyentlari:

$$Y = 446,46 + 0,0775x - 0,000003x^2$$

Bu yerda, Y – atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, x – jon boshiga umumiy daromadlar (1-diagramma).

3-jadval. Ekonometriya modelining asosiy statistik ko'rsatkichlari.

R ²	Omllarning p-qiymati	O'rtacha approksimatsiya xatoligi	Qoldiqlar avtokorrelyatsiyasi (Darby-Watson testi)
0,931	p<0,05	2 %	1,67

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, $n < 10$ ligiga qaramay, modeldagi omillar statistik ahamiyatlidir. Bundan tashqari, o'rtacha approksimatsiya xatosining atigi 2 foizni tashkil etishi hamda Darby-Watson testi orqali topilgan qoldiq avtokorrelyatsiyasining 1,5–2,5 oraliqda ekanligi modelning ishonchlilik darajasini yanada o'ttiraadi (3-jadval).

XULOSA

Markaziy Osiyo hududida yaqin kelajakda ekologik inqiroz bilan yuz kelish ehtimoli katta bo'lsa-da, O'zbekistonda 2017-yildan beri amalga oshirilayotgan islohotlar unga ushbu qiyin davr uchun imkoniyatlar taqdim etadi. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, yashil iqtisodiyotga o'tishda bir qancha takliflar mavjud:

1. Ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi sog'lig'ini saqlashga ajratiluvchi xarajatlarni oshirish. Bu taklif bir qarashda tovar tannarxi ortishiga sababchi bo'lsa-da, ikkinchi tomondan samaradorlik pasaymasligiga va hatto Y turdagi xodimlari samaradorligi ortishiga sababchi bo'lishi mumkin [1].

2. "Yashil energiya" ishlab chiqaruvchilari bozorida raqobatchilarni ko'paytirish, chet el investitsiyalarni faol jalb etish. Aynan raqobat orqali O'zbekiston bozorida qayta tiklanuvchi energiya narxini pasaytirish mumkin.

3. Ekologik axborotni to'g'ri shakllantira bilish. Juda oddiy ko'rinsa-da, aholi hududlarining ekologik doimiy axborotnomalar chiqarish hali O'zbekiston barcha imkoniyatini yo'qotmaganiga, barcha o'z hududini asrashga mas'ul ekanligiga signal bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Galani, A. and Galanakis, M. (2022) Organizational Psychology on the Rise—McGregor's X and Y Theory: A Systematic Literature Review. *Psychology*, 13, 782-789. doi: 10.4236/psych.2022.135051.
- Haiyan Zhang, Zhigang Yu, Chengcheng Zhu, Ruiqiang Yang, Bing Yan, Guibin Jiang. Green or not? Environmental challenges from photovoltaic technology, *Environmental Pollution*, Volume 320, 2023, 121066, ISSN 0269-7491, DOI: <https://doi.org/10.1016/j.envpol.2023.121066>.
- Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls.



4. Ieva Snikersproge. Ecological labour or why environmentally friendly practices struggle to become mainstream, *Ecological Economics*, Volume 224, 2024, doi: <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2024.108286>.
5. Jose Guillermo Cedeño Laurent et al. 2021. Associations between acute exposures to PM2.5 and carbon dioxide indoors and cognitive function in office workers. *Environmental Research Letter*, 16 (9), 40–47. doi: <https://doi.org/10.1088/1748-9326/ac1bd8>.
6. Jeff Sykes. 30kW Commercial Solar: Pricing, Output, and Returns. Solar choice. URL: <https://www.solarchoice.net.au/commercial-solar/pricing/30kw-system-output-and-returns/>
7. Leal PH, Marques AC. The evolution of the environmental Kuznets curve hypothesis assessment: A literature review under a critical analysis perspective. *Heliyon*. 2022 Nov 11;8(11):e11521. doi: 10.1016/j.heliyon.2022.e11521. PMID: 36406679; PMCID: PMC9668524.
8. Madina Tursumbayeva, Aset Muratuly, Nassiba Baimatova, Ferhat Karaca, Aiymgul Kerimray, 2023. Cities of Central Asia: New hotspots of air pollution in the world. *Atmospheric Environment*, 309, 1–15. doi: <https://doi.org/10.1016/j.atmosenv.2023.119901>.
9. Midori Paxton. The destruction of nature threatens the world economy. It's time to outlaw it as a serious financial crime. UNDP, 2023.
10. Roger Perman, Yue Ma, James McGilvray and Michael Common. *Natural Resource and Environmental Economics*. Third edition. Edinburgh, Pearson Education Limited, 2003. 100-105.
11. Soumyananda Dinda, *Environmental Kuznets Curve Hypothesis: A Survey*, *Ecological Economics*, Volume 49, Issue 4, 2004, Pages 431-455, ISSN 0921-8009, doi: <https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2004.02.011>.
12. Shahriar Shafiee, Erkan Topal, When will fossil fuel reserves be diminished?, *Energy Policy*, Volume 37, Issue 1, 2009, Pages 181-189, ISSN 0301-4215, doi: <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2008.08.016>.
13. Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. –Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.
14. The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. 2022. *Towards a Greener Economy in Uzbekistan*. World Bank. 5-8.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (2010-2023-yillar). URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'rtacha hisoblangan ish haqi. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
17. O'zbekistonda 1-maydan “tabaqalashtirilgan tariflar” bo'yicha elektr energiyasi va gaz narxi o'zgaradi. Daryo.uz. URL: <https://daryo.uz/2024/04/16/ozbekistonda-1-maydan-tabaqalashtirilgan-tariflar-boyicha-elektr-energiyasi-va-gaz-narxi-ozgaradi>
18. O'zbekistonning yashil shaharlari reytingi e'lon qilindi. Kun.uz. URL: <https://kun.uz/kr/86226034>
19. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>
20. Васильева А.В. Возможности оценки экологической эффективности труда в масштабах вида экономической деятельности // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2021. Том 11. № 12А. С. 480-485. DOI:10.34670/AR.2021.12.87.047



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиёв Фаррух Абдуллахожаевич	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
ЎЗБЕКИСТОНДА YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
ЎЗБЕКИСТОНДА “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
